

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO‘LLARI

Absamatov Anvar Ergashevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
i.f.n., dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklari aktivlarini himoyalashda risklarni boshqarish hamda uni rivojlantirish orqali O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida tijorat banklarining faoliyatida qo‘llanilishi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirishning zaruriy huquqiy shart-sharoitlari o‘rganilgan. O‘zbekiston respublikasi tijorat banklari aktivlarini himoyalashda risklarni boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribasini qo‘llashdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, bank risklari, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, bank mahsulotlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategiyasi, aktivlar, bank aktivlari, bank passivlari, marja, kredit, depozit, foizli, foizsiz daromad va xarajatlar.

Аннотация

В статье представлены взгляды на управление рисками в процессе защиты активов коммерческих банков, а также рассмотрено их значение для развития национальной экономики Узбекистана. Особое внимание уделено мерам, реализуемым в процессе реформирования финансового сектора, включая развитие конкурентной среды и современные подходы к ведению банковского бизнеса. Также анализируются проблемы применения зарубежного опыта управления банковскими рисками в Узбекистане и предложены авторские рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: коммерческий банк, банковские риски, цифровая трансформация, инновационный банк, банковские продукты, структура управления, стратегия банка, активы, пассивы, маржа, кредит, депозит, процентные и беспроцентные доходы и расходы.

Abstract

This article presents insights into risk management practices aimed at protecting the assets of commercial banks, with a focus on their application in Uzbekistan's national economy. It highlights measures taken during the financial sector's systematic reform, including the development of competitive conditions and adoption of modern banking practices. The study also addresses challenges in applying international experience to local banking risk management and provides the author's recommendations for improvement.

Keywords: commercial bank, banking risks, digital transformation, innovative banking, banking products, management structure, bank strategy, assets, liabilities, margin, credit, deposit, interest and non-interest income and expenses.

KIRISH

O‘zbekiston bank tizimida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko‘lamini kengaytirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, ularning kapitallashuv darajasini yanada oshirish, investitsiya jarayonlarida, iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilishda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashda keng ishtirok etishini ta‘minlash, ularning erkinligini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Samarali olib borilayotgan islohotlar natijasida bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish borasida belgilab berilgan vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirib borilishi natijasida tijorat banklari faoliyati yanada takomillashib, ularning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va eng asosiysi, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi ortib, mustahkamlanib boradi. Bank tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi banklar faoliyatining iqtisodiy o‘shishini, moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirishdir, keyingi yillarda tijorat banklar moliyaviy resurslarni moliyaviy vositachilik operatsiyalari sohasiga yo‘naltiruvchi moliyaviy institutga aylanib qoladi.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida “...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘shishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash” ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.[1]

Tez sur‘atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya oqimi kengayayotgan bo‘lishiga qaramasdan, shaffoflik, likvidlilik, korrupsiya, boshqaruv, soliqlar va nisbatan yuqori tranzaksiya xarajatlari kabi omillar aktivlarni baholashning “eng yaxshi” usullarini shakllantirishni qiyinlashtiradi. Jahon iqtisodiyotida hamon davom etayotgan past darajada o‘shish, dunyo investorlarini rivojlangan davlatlarga nisbatan ikki va undan ko‘proq marta o‘sayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni amalga oshirishga undamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bank risklari monitoringini o‘tkazish va rivojlantirish amaliyot uchun ham, nazariya uchun ham nafaqat risk-xavflar to‘g‘risida tezkor ma‘lumot olish imkonini beradi, balki bu yo‘nalishdagi zamonaviy tendensiya va mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, bank sektorining rivojlanish istiqbollari haqida xulosa chiqarish imkonini ham beradi. Shu munosabat bilan bank risklarini monitoring qilish va baholashning bunday tizimiga ehtiyoj mavjud bo‘lib, bu alohida ko‘rsatkichlarning banklarning va butun bank tizimining kompleks baholashiga hamda hozirgi va istiqboldagi vaqtda umumiy holatiga ta‘sirini ko‘pish imkonini beradi.

Hap qanday mamlakat uchun bank tizimining nafaqat hozirgi holati, balki rivojlanish istiqbollari ham muhimdir, bu uning iqtisodiyotdagi asosiy pozitsiyasi bilan izohlanadi [2].

Bank sohasining rivojlanish tendensiyasi xizmatlarni elektron tarzda yuritishga

o‘tishdir. Bu borada ilk fundamental tadqiqot Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida 1974-yili tashkil etilgan Bank nazorati bo‘yicha Bazal qo‘mitasi tomonidan o‘tkazildi. Mazkur qo‘mita tomonidan elektron bank xizmatlari bo‘yicha ishchi guruh tashkil qilindi. Bank nazoratchilari uchun xalqaro elektron bank ishi masalalari «Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors» (2000-y.) ma‘ruzalari ushbu guruh faoliyatining natijasiga aylandi. [3]

Mazkur muammoning turli jihatlariga Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va O‘nlik guruhining (G10) tadqiqotlarida xam sezilarli darajada e‘tibor qaratilgan. [4]

Prof. N.Jumayev bank risklarini vujudga kelishiga nisbatan iqtisodiy inqirozlarni tahlil etishni nazarda tutadi. Unga ko‘ra, iqtisodiy inqirozlar sharoitida valyuta munosabatlari bilan bog‘liq holatlari bo‘yicha ilmiy xulosalarni shakllantirib bergan [5].

Prof. Sh.Z.Abdullayeva o‘zining ilmiy asarlarida riskni boshqarishdan ko‘zlangan maqsad ijobiy natija daromad, foyda ko‘rish bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi [6].

V.Leyung va boshqalar tomonidan AQSH banklarida 2008-2009-yillarda yuz bergan moliyaviy inqirozning risklarni vujudga keltirish holatlarini tahlil etadi [7]. Ular bank kapitalining umumiy bozorning inqiroz riskiga nisbatan sezuvchanligini aniqlash va baholashga e‘tibor qaratishadi. Natijada, tadqiqotlar asosida to‘rtta muhim ilmiy natijani shakllantirishga erishishadi. Birinchidan, banklarning shaffof bo‘lmagan aktivlari aniq baholanmaganligi, ikkinchidan rentabellik darajasi past bo‘lgan banklarda risklar yuqori ekanligi, uchinchidan muddati o‘tgan kredit qarzdorligi va bank riskining ijobiy korrelyatsiyasi uch barobarga ortganligi va to‘rtinchidan birinchi darajali kapital yuqori himoya buferiga ega banklar kichikroq riskka ega bo‘lib, strukturaviy moliya bozori riski ta’siriga ham barqaror ekanligi qayd etiladi.

A.Kuritzkes va T.Shuyerman tomonidan bank risklarini tasniflashda ma‘lum bo‘lgan, ma‘lum bo‘lmagan va aniqlab bo‘lmaydigan xususiyatlarga ajratgan holda tushuntirib berishadi [8]. Ular 1986-2005-yillarda AQSH banklarida bozor, kredit, aktiv va majburiyatlar riski, operatsion va biznes riski kabi xavf turlarini asoslab berishadi. Tadqiqotlari asosida mazkur risk turlarining o‘rganilgan banklardagi umumiy riskidagi ulushini aniqlashadi. Jumladan, bozor riski 5 foiz, kredit riski deyarli yarim ulush, operatsion va biznes riski 30 foiz va strukturaviy foiz riski 18 foizni tashkil etganligini asoslab berishadi. Shuningdek, yirik banklarda haddan tashqari salbiy moliyaviy oqibatlarni vujudga kelishi kam bo‘lishini ta’kidlab o‘tishadi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda banklarning riskka uchrash ehtimolligidagi omillarning ayrim jihatlari aniqlangan va baholangan. Jumladan, bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatkichlardan tashqari, milliy iqtisodiyotdagi vaziyatning ham ta’sir etish darajalari tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlarning ilmiy xulosalarida risklar moliyaviy va nomoliyaviy risklar guruhiga ham ajratgan tarzda tasniflab beriladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma‘lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni

o'rganish davomida umum-iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining aktivlarini riskka tortishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 5 ta risk darajasi hisobga olingan: 0%, 20%, 50%, 100%, 150%. Ammo riskka tortish bo'yicha Qo'mita tomonidan belgilangan barcha talablar respublikamiz bank amaliyotida o'z aksini topmagan. Masalan, hukumatning qimmatli qog'ozlari riskka tortilayotganda ularning muddati Bazel andozalari bo'yicha hisobga olinadi.

Ya'ni, hukumatning faqat 90 kungacha muddatga chiqarilgan obligatsiyalari va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlari risk darajasiga ega emas. Hukumatning 90 kundan ortiq muddatga chiqarilgan barcha qimmatli qog'ozlari 20 % risk darajasiga egadir. Respublikamizda esa, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar risk darajasiga ega emas. Holbuki, inflyatsiya va devalvatsiya ta'sirida hukumatning qimmatli qog'ozlariga banklar tomonidan qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayish xavfi mavjud. Riskni baholash — bu riskni tahlil qilish, uning yuzaga keladigan ta'sirlarini aniqlash, umumiy ko'rsatkichlarining o'zgarish chegaralarini ishlab chiqishdan iboratdir. Risklar iqtisodiyotning bir qancha omillari hisobga olgan holda baholanadi. Bu ko'rsatkichlarni ekspertlar balli tizimda baholaydilar va shu asosda risklarni ma'lum toifalarga bo'lgan holda, ta'sir darajasi o'rganiladi.

Umuman olganda, moliya bozoridagi risklar manbasi turli omillar bo'lib, ularning ehtimoliy tarzda ma'lum va noma'lum darajadagi ta'siri moliya bozorida mos ravishda riskli jarayon, hodisa va harakatlarni keltirib chiqaradi. Risklar doimo omillar tarkibida mavjud bo'lib, tabiatan ehtimoliy xarakterga ega qonuniyatlar asosida yuzaga keladi, moliya bozori muhitida rivojlanishi shakllanuvchi voqe'larga bevosita yoki bilvosita o'tadi. Demak, risklar moliya bozori muhitida doimo mavjud bo'lib, uning holati va rivojlanishi sifatini zaiflashtirib turadi, ba'zan esa yomonlashtiradi. Risklar tabiati, mazmuni va ta'siri qonuniyatlarini tahlil qilish asosida ularni pasaytirish va boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish mumkin.

Risklarni baholashda ekspert uslubining samaradorligi, avvalambor, ekspertlarning saviyasi bilan belgilanar ekan, risklarni baholash jarayoniga yuqori malakali ekspertlarni jalb etish va aniq modellar asosida ish yuritish ushbu uslubning asosiy mezonidir.

Amalda kredit tashkilotlari o'zlarining mumkin bo'lgan xavf-xatarlarini va yo'qotishlarini tahlil qilish uchun, asosan, bitta faktorli modellardan foydalanadilar, bu har doim ham yetarli samara bermaydi. Ushbu metodologiya umumiy tijorat bank riskini, ya'ni risk – appetitini (ishtahasini) va uning individual tarkibiy qismlarini baholash uchun cheklanmagan risk omillaridan bir vaqtning o'zida foydalanishni o'z ichiga oladi.

Xalqaro va mahalliy amaliyotda kredit tashkilotlari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarning qiymatini baholashning turli usullari qo'llaniladi, ularning aksariyati bitta faktor modellar yoki bir xil turdagi risk omillari bo'lgan modellar yordamida qo'llaniladi. Bir vaqtning o'zida kredit, bozor va boshqa risk

omillarini tahlil qilish uchun foydalanadigan modellar juda kam. Bu holat kredit tashkilotlariga o'zlarining umumiy zararlarining miqdorini butun moliya portfeli bo'ylab yetarli darajada baholashga imkon bermaydi. Bir faktorli modellar bir nechta risk omillaridagi bir vaqtning o'zida o'zgarishlarni hisobga olishga imkon bermaydi.

1-jadval

Risklarni aniqlash uchun foydalaniladigan uslublar¹

Uslublar		
Statistik uslub	Ekspert uslubi	Kombinatsiyalashtirilgan uslub
Foyda va zararlar statistikasi o'rganiladi, u yoki bu iqtisodiy hosila(qaytim)ining hajmi va olinish davri aniqlanadi va shularga ko'ra kelgusi davr uchun eng ehtimolli istiqbol belgilanadi	Ayrim raqamlar ishbilarmonlar ixtiyorida bo'lmaganda yoki raqamlarni to'plash va ularni hisob-kitob qilish qimmatga tushishi mumkin bo'lganda va ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, risk darajasini hisoblashning ekspert uslubi qo'llanadi	Statistika va ekspert uslublarining kombinatsiyasi
Statistika uslubining asosiy vositalari		
Variatsiya: bir holatdan (davrdan) ikkinchisiga o'tilganda ko'rsatkichning miqdoriy o'zgarishi	Dispersiya: ko'rsatkichining ma'lum davrdagi darajasini uning o'rtacha darajasidan farqlanish miqdori	Standart cheklanish: ko'rsatkichning barcha davrlarga xos bo'lgan o'zgarishi

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalariga ko'ra, kredit tashkiloti kapitalining yetarililigini yagona kontekstda baholash masalalari umumiy riskning qiymatini baholash bilan bog'liq. Tavsiya etilayotgan metodologiyaning maqsadi – kredit tashkilotining kelajakda turli xil risklarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni aniqlash uchun yagona yondashuvlarni ishlab chiqish, jumladan, kredit riski.

Kredit riski-shartnoma shartlariga (sukut e'lon qilish riski) muvofiq, qarzdorning kredit tashkilotiga moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida yoki to'liq bajarmasligi oqibatida zararlanish riski paydo bo'ladi. Bundan tashqari, kredit riski, shuningdek, qarz oluvchining kredit reytingini pasaytirish bilan bog'liq mumkin bo'lgan zararlarni ham o'z ichiga oladi (mumkin bo'lgan zararlarni yaratish, qarz oluvchining majburiyatlarining bozor qiymatini pasaytirish va boshqalar).

O'zbekiston milliy bank tizimini xalqaro integratsiya jarayonlariga faol bog'lanayotganligi bank aktivlarining global moliyaviy risklarga ta'sirchanligini kuchaytirmoqda. Bank amaliyotining tarixiy evolyutsiyasi aktivlarning barqaror o'sib borishi doimo bank rentabelligini oshishiga imkon bermasligini, aksincha, bu jarayonda bank nazoratini susaytirilishi inqirozli holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini bir necha bor isbotlab bergan.

Tijorat banklarida aktivlar portfeli hajmining o'sishi va daromadligi oshib borishi bilan birga, aktivlarning risklik darajasi, ya'ni yo'qotish ehtimoli ham oshib boradi. Bunday sharoitda tijorat banklarida aktivlarni himoyalash mexanizmi hisoblangan risk

¹ Muallif ishlanmasi

menejmenti tuzilmasiga yangi, innovatsion usullarni joriy etishning dolzarbligi oshadi. Milliy bank tizimida risk menejmenti muayyan darajada shakllangan bo‘lib, bank risklarini boshqarish bilan alohida bo‘linmalar shug‘ullanadi.

Kutilgan risk va yo‘qotishlar prognozning yuqori darajasida o‘rtacha yo‘qotishlarni bir yil ichida ifodalaydi. Ular quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin:

$$EL_{t-0}^{k,j} = a_j * \frac{X_{t-0}^{k,j}}{100} K_t^{k,j}$$

Bu yerda: a_j — j chi moliyaviy vositaning asosiy qiymati;

$X_{t-0}^{k,j}$ - moliyaviy vositaga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy sana uchun k chi kredit risk omilining ichki bahosi, yillik foizda ifodalangan;

$K_t^{k,j}$ - asosiy sanada j chi - moliyaviy vositasiga k chi - risk omilini ta’siri darajasi, masalan, defoltdan keyingi zarar darajasi.

Adolatli qiymatni olish uchun moliyaviy vositaning balans qiymati odatda kredit riskidagi kutilgan yo‘qotishlar miqdoriga mos keladi. Risk omilining qiymatini o‘zgartirish orqali moliyaviy vositaning qiymatidagi nisbiy o‘zgarishlarni baholash uchun odatda rentabellik tushunchasi qo‘llaniladi.

Likvidlik riski. Bunda likvidlik riski-kredit tashkilotining o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilishini ta’minlay olmasligi oqibatida zarar riski. Qoida tariqasida, ushbu riskni amalga oshirishda kredit tashkiloti o‘z majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy bozorda qo‘shimcha resurslarni jalb qilish va/yoki mavjud aktivlarni amalga oshirishga majbur bo‘ladi, bunda qo‘shimcha xarajatlar yoki kam daromad shaklida rejalashtirilgan zarar yetkazilmaydi.

Kredit tashkilotining to‘lov qobiliyatini saqlab qolish uchun mumkin bo‘lgan xarajatlarni baholash uchun likvidlik kamomadini tahlil qilish usuli vositasidan foydalanish qulay. Tanaffuslarni tahlil qilish uchun kerakli vaqt ufqi t tahlilning kerakli tafsilotlariga qarab, belgilangan miqdordagi shoshilinch diapazonlarga bo‘linadi. Muddatli aktivlar va majburiyatlar (shu jumladan, balansdan tashqari komponentlar) belgilangan bozor segmentlari va muddatlilik oralig‘iga muvofiq aktivlar hamda majburiyatlarning yagona majmuasiga birlashtiriladi:

$$A_i^s = \sum_{t_i \leq T_j < t_i^+} a_j^s \quad L_i^s = \sum_{t_i \leq T_j < t_i^+} l_j^s$$

Bu yerda: $A_i^s (L_i^s)$ - bozorning s-segmentining dolzarbligi bilan bog‘liq bo‘lgan aktivlarning (majburiyatlarning) umumiy qiymati;

$a_j^s (l_j^s)$ - j chi aktivning qiymati (majburiyat) bozorning s-segmenti, muddati (muddati) muddati i chi qator zudlik chegaralarida joylashgan;

$t_i^-(t_i^+)$ – i chi bandning pastki (yuqori) chegarasi zudlik bilan.

Cheklanmagan likvidli aktivlar (kassadagi pul mablag‘lari, Nostro hisobidagi qoldiqlar va boshqalar) va joriy majburiyatlar (“talab qilib olinguncha” depozitlari,

joriy hisobdagi mablagʻlar, Loro hisobidagi qoldiqlar va boshqalar joriy davrda mijozlar va kontragentlar tomonidan olib tashlanishi mumkin boʻlgan qism) “talab qilib olinguncha” muddatiga tegishli. Muddatli aktivlar va majburiyatlar, ularning erta qaytarilishi va bajarilishi boʻyicha “talab qilib olinguncha” muddatlilik oraligʻiga ham tegishli.

Qolgan muddatsiz aktivlar va majburiyatlar (shu jumladan, kredit tashkilotining hozirgi davrda tasarruf etishi mumkin boʻlgan qismida “talab qilinadigan” majburiyatlar), shuningdek, tanlangan vaqt oraligʻidan yuqori boʻlgan qaytarish hamda ijro muddatlari bilan aktivlar va majburiyatlar “muddatsiz” muddatlilik oraligʻiga tegishli.

Kredit tashkilotlari tezkor va, eng muhimi, ushbu majburiyatlarni bajarish uchun naqd pulga aylantirilishi mumkin boʻlgan likvidli aktivlar miqdori boʻyicha majburiyatlarni oshirib, uni moliyaviy bozorda qoʻshimcha resurslarni jalb qilishga yoki kamroq likvidli aktivlarni amalga oshirishga majbur qiladi.

2-jadval

Stress-testlash maqsadida asosiy risklarni baholash modeli va yondashuvlari¹

Risk	Yondashuv	Model turi
Kreditlik	Standartlashtirilgan yondashuv	
	Miqdoriy (statistik) modellar (masalan, CreditRisk+, CreditMetrics, KMV, CreditPortfolioView, Internal Ratings-Based Approach va boshqalar)	
	Qarz oluvchini defolt ehtimolini baholash uchun modellar (PD)	Skoring modellari (diskriminant tahlil yoki ekonometrik modellashtirish)
		Bozor maʼlumotlariga asoslangan modellar (tarkibiy modellar (Merton turi) yoki qisqartirilgan model)
Gibrid modellar		
Likvidlik	Koeffitsiyent modeli	
	Naqd pul oqimiga asoslangan usul (toʻlov taqvim)	
	Bankning likvidligiga boʻlgan ehtiyojni bashorat qilishning miqdoriy (statistik) usullari	
Bozor	Standartlashtirilgan yondashuv	Muddati belgilangan model
		Davomiylik modeli
	Ichki yondashuv	Dispersion-kovarianlik (analitik, parametrik)
		Simulyatsiya (masalan, Monte-Karlo usuli)
Foizlik	Gep-analiz usuli	
	Davomiylik usuli	
	Stimulyatsiya usuli	

Yevropada stress-testlarga kompleks qarash bank xatarlarini boshqarishda yagona yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda bank tavakkalchiliklarini

¹ Е Михеев. Управление банковскими рисками. <https://dspace.tltsu.ru>

boshqarish bilan bogʻliq boʻlgan kredit tashkilotining yakka tartibdagi korxonalarining murakkab xatarlarini oldini olish muammosi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy oʻrinni egallaydi va bank daromadining salmoqli qismi ham aynan mazkur operatsiyalar orqali olinadi. Shu sababli tijorat banklari kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Bank kredit portfelini samarali boshqarishi uchun, eng avvalo, tijorat banklarining kreditlash jarayoni toʻgʻri tashkil qilinishi, konveyer-skoring usulidan samarali foydalanish orqali aktivlar hajmini oshirish zarur.

Shuningdek, ushbu sohadagi qonuniy-meʼyoriy hujjatlarni muntazam takomillashtirib borish, tijorat banklarida kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda, kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, kredit hujjatlarini va kredit garovini rasmiylashtirishni soddalashtirish hamda baholash xalqaro meʼyorlarga muvofiqligini taʼminlash zarur.

Toʻlov qobiliyatini saqlab qolish uchun mumkin boʻlgan xarajatlar, daromad keltiruvchi aktivlarni rejasiz amalga oshirishdan olingan daromadlar va moliya bozorida resurslarning muqobil qarz olish qiymati taxminan teng boʻlishi kerakligi taxminiga asoslangan holda, hisoblab chiqilishi mumkin. Moliya bozorida resurslarni qarz olish uchun mumkin boʻlgan xarajatlarning qiymati bozor foiz stavkalarining vaqtinchalik tuzilmasidan foydalanish asosida hisoblab chiqilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.

2. Тпавкина Е.В. Поль мониторинга банковских писков вобеспечении устойчивости банковского сектопа Поссии // Вестник Сапатовского госудапственноро социально-экономического унивепситета. 2012. №4 (43). С.138.

3. Елестронис Банкинг Групп Инигиативес анд Ухите Паперс. — Басел Коммитте фор Банкинг Супервизион. — Басел, Остобер 2000. — 27 п.

4. <http://www.bis.org> — sayti maʼlumotlari asosida tayyorlangan.

5. Jumayev N.X. Jahon iqtisodiyatining yangi inqirozi –iqtisodiy harakatsizlik. 03.04.2020-y. <https://reviyew.uz/oz/yexg>

6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. — T.: Moliya, 2002.-304 b.

7. Leung, W. S., Taylor, N., & Evans, K. P. (2015). The determinants of bank risks: Evidence from the recent financial crisis. *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 34, 277-293.

8. Kuritzkes, A., & Schuermann, T. (2006). What we know, don't know and can't know about bank risks: A view from the trenches



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**